Zamonaviy dunyoda logistika jarayonlarining samaradorligi, tashishni optimallashtirish sanoat va savdoni rivojlantirishda asosiy rol o'ynaydi. Bu, ayniqsa, ta'minot zanjirining har bir elementi umumiy unumdorlikka va mahsulotning yakuniy tannarxiga ta'sir qiladigan birliklarni tashish sharoitida juda muhimdir [1, 2]. Tovarlarini vagon va konteyner-platformalarida tashish o'rtasidagi masofani inobatga olgan holda tanlovning texnik-iqtisodiy taqqoslash ko'plab transport korxonalar uchun asos hisoblanadi. Yuklarni tashishda transport xarajatlari, yetkazib berish tezligi, yuklarni butligini saqlash darajasi va xalqaro logistika tizimlariga integratsiyalashuv imkoniyati kabi iqtisodiy omillar keltiriladi [4]. Ushbu maqolada biz ikkala muqobil variantning texnik-iqtisodiy jihatlari, logistika tizimlarining samaradorligi va raqobatbardoshligiga tashish masofasining ta'siri tahlil qilingan [3, 5, 6]. Bunday tahlil yuk jo'natuvchi transport korxonalar o'z yuklarini vagonlar va konteyner-platformalarda donali yuklarni tashishning afzalliklari va kamchiliklarini aniqlash hamda tashishning optimal yechimni aniqlashga imkon beradi.

2. Tadqiqot metodikasi

Quyida keltirilgan tadqiqot metodikasi yuk jo'natuvchilar o'z yuklarini tashishga taqdim etishda masofaga qarab yuklarni temir yo'l transportining oddiy platformasida va konteyner-platformada tashishning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini aniqlashga imkon beradi. Tashish jarayoni uchun maqsad funksiya sifatida F va bog'liq parametrlar yuk massasi (m), tashish masofasi (L), ortish-tushirish xarajatlari (q), platforma va konteyner-platformaning turi, inventar va shaxsiy transport birligini inobatga olgan holda hisoblanadi [7-9].

$$F = f(m, L, q) \rightarrow \min \quad (1.1)$$

Bortli va bortsiz temir yo'l platformalarda turli nomenklaturadagi yuklarni tashishga mo'ljallangan, konteyner-platformalarda, asosan, donali yuklarni tashishga mo'ljallangan. Konteyner-platformalar yuk bilan birgaligida temir yo'l platformalarga ortiladi [11, 13, 14].

Platformaning afzalligi sifatida yuk ko'tarish qobiliyatining yuqoriligi bo'lsa, yuklarni konteyner-platformalarda tashishda eshikdan eshikkacha yetkazib


^a <https://orcid.org/0000-0002-1664-2003>

^b <https://orcid.org/0000-0001-7701-4492>

^c <https://orcid.org/0000-0002-4519-3382>




berish imkoni mavjud, bunda konteyner-platfomadagi yuk birligini tushurmasdan bir transportdan boshqa transport turiga qayta ortish mumkin [10,12]. Taqdiqot metodikasida na'munaviy ortilgan va mahkamlangan yuk birligi keltirilgan (1-rasm).




1 -rasm. Konteyner-platfomada yuklarni joylashtirish va mahkamlash: 1 – yuk birligi; 2 – konteyner-platfoma; 3 – tortuv trosslari

Konteyner-platfomalarini temir yo‘l orqali qaytarish namunasi keltirilgan, rasmda ko‘rish mumkinki, konteyner-platfomalari va fitting platformaning parametrlariga qarab, vagon tarkibda intermodal transport birligini guruhlab qaytarish mumkinligi ko‘rsatilgan 2-rasm.



2-rasm. Bo‘sh holatdagi konteyner-platfomani temir yo‘l transporti orqali qaytarish

Avtomobil transportida turli xil konteyner va konteyner-platfomalarni tashish mumkin. Bir nechta bo‘sh holatdagi konteyner-platfomani avtomobil transportida ham qo‘llanilishini 3-rasmda ko‘rishimiz mumkin.



3-rasm. Bo‘sh holatdagi konteyner-platfomani avtomobil transporti orqali qaytarish

Tashish usullarining texnik-iqtisodiy taqqoslash. Temir yo‘l transportida yuk tashishda (na‘munaviy 25t) yukni 40futli konteyner-platfoma va inventar 13-401 modelli platformada tashishning iqtisodiy ko‘rsatkichlari masofaga qarab hisoblangan (1-jadval).

Tashish xarajatlarni aniqlashda mahalliy ta‘rif siyosatidan foydalanilgan.

1-jadval

№/k m	10	20	30	50	80	10	12	15	20
	0	0	0	0	0	00	00	00	00
	k	k	k	k	k	k	k	km	km
	m	m	m	m	m	m	m		
40 fut kont eyne r, mln.	3, 57 3	4, 04 4	4, 52 6	5, 50 2	6, 86 1	7, 81 5	8, 74 6	10, 09 5	12, 47 3

so‘ m									
Platf orm a 13- 401, mln. so‘ m	1, 57 3	1, 98 3	2, 38 9	3, 18 9	4, 35 1	5, 15 1	5, 96 2	7,1 68	9,0 75

Yuqoridagi 1-jadvalda temir yo‘l transportiga taqdim qilingan yuklarni tashish xarajatlari mahalliy ta‘rif siyosatidan foydalanilgan holda hisoblangan.

3. Xulosa

Keltirilgan izlanishlarda temir yo‘l transporti orqali tashilayotgan yuklarni samarali tashish usulini tashish masofasiga bog‘liq holda tanlash va texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarni asoslashdan iborat. 1-jadval orqali yuklarni 40 futli konteynerlarda va temir yo‘l platformalarda tashish narxlari hisoblangan. Hisob-kitoblar natijasida yuklarni mahalliy tashishlarda temir yo‘l platformalarda tashish samarali ekanligi aniqlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar / References

[1] “Темир йўл транспортда юкларни етказиб бериш жараёнидаги вагонлардан самарали фойдаланишни таҳлил қилиш”// Бобоев Д.Ш., Шихназаров Ж.А.// Academic Research in Educational Sciences. 210-216 бет. 2021 йил май.

[2] Шихназаров Ж.А., Бобоев Д.Ш., Дехқонов М.М. Юкларни маҳкамлашда кўп марталик фойдаланиладиган занжирли тросларнинг самарали айланмасини ташкил қилиш технологияси, научные труды республиканской научно-технической конференции с участием зарубежных ученых // Ресурсосберегающие технологии на транспорте, Ташкент-2021, 61-63 б.

[3] Рузметов Я., Молчанова О., Шихназаров Ж., Calculation of solid-state cargo fastener under the influence of longitudinal forces, E3S Web of Conferences, 2020, 10-16 б.

[4] Y. Ruzmetov, J. Shihnazarov., About fastening cargo on the wagon under the influence of transverse forces // Journal of Tashkent Institute of Railway Engineers, 2020, 16 (2), 28-38.

[5] K.Turanov, Y.Ruzmetov, J.Shihnazarov., To the calculation of solid-state cargo attachment under the influence of longitudinal forces // Journal of Tashkent Institute of Railway Engineers 2019, 15 (4), 24-35

[6] Коровяковский Е.К, Илесалиев Д.И, Анализ существующих методов перегрузки тарно-штучных грузов на железнодорожном транспорте // Современные проблемы транспортного комплекса России. 2015. №1(6)

[7] Кобулов Ж. Р., Баротов Ж. С., Ташматова М. С. К вопросу о комплексном решении задачи совершенствования срока доставки грузов на



железнодорожном транспорте //Universum: технические науки. – 2021. – №. 5-3 (86). – С. 13-19.

[8] Арипов Н.М., Ибрагимова Г.Р., Илесалиев Д.И., Светашева Н.Ф., Шихназаров Ж.А. Особенности функционирования зерноэлеваторов в цепях поставок //Логистические системы в глобальной экономике. – 2021. – №. 11. – С. 52-56.

[9] Turanov, K., Ruzmetov, Y., & Shihnazarov, J. (2019). To the calculation of solid-state cargo attachment under the influence of longitudinal forces. Journal of Tashkent Institute of Railway Engineers, 15(4), 24-35.

[10] Dehkonov, M. M., Abdurakhimov, O. U., Nasullayev, A. X., & Sadirov, I. R. (2024). Loads container-platform at a transport technical and technological recommendations on. scholar, 2(1), 20-24.

[11] Илесалиев, Д.И. (2015). Определение оптимальных параметров погрузочно-разгрузочного участка с помощью математических методов. In Транспорт: проблемы, идеи, перспективы (pp. 227-233).

[12] Shihnazarov, J., Boboev, D., Dehkonov, M., & Ikramova, D. (2023). Choice of an efficient mode of transport on the basis of comparison of technical and economic indicators of types of transport. In E3S Web of Conferences (Vol. 389, p. 05032). EDP Sciences.

[13] Илесалиев, Д. (2018). Рекомендации по организации и управлению складом от А до Z. Логистика, (1), 18-20.

[14] Светашев, А. А., Шихназаров, Ж. А., & Светашева, Н. Ф. (2021). О возможности развития железнодорожного направления китай-кыргызстан-узбекистан on the possibility of developing the railway direction China-Kyrgyzstan-Uzbekistan Транспорт, 30.

Mualliflar bo'yicha ma'lumot/ Information about the authors

Ilesaliyev Daurenbek
Ixtiyarovich

Toshkent davlat transport universiteti, yuk transport tizimlari kafedrası professori, texnika fanlari doktori, professor,
ilesaliyev@mail.ru,
[+998998064199](tel:+998998064199),
<https://orcid.org/0000-0002-1664-2003>

Shixnazarov Jamol
Alisherovich

Toshkent davlat transport universiteti, yuk transport tizimlari kafedrası dotsenti v.b., texnika fanlari nomzodi,
jamol.alisherovich@mail.ru,
[+998977806133](tel:+998977806133)
<https://orcid.org/0000-0001-7701-4492>

Azimov Farrux
Kaxramonovich

Toshkent davlat transport universiteti, yuk transport tizimlari kafedrası mustaqil tadqiqotchisi
[+998909789295](tel:+998909789295)
farruxa@mail.ru,
<https://orcid.org/0000-0002-4519-3382>



Main approaches to strategic planning of the activities of a higher educational institution

S.A. Uktamov¹, G.D. Talipova²

¹Tashkent state transport university, Tashkent, Uzbekistan

²Tashkent railway college, Tashkent, Uzbekistan

Abstract: This article is devoted to the main approaches to strategic planning of the Tashkent State Transport University. The paper examines the key elements of strategic planning, including establishing the mission and vision of the university, analyzing the internal and external environment, setting specific goals, developing strategies and action plans, implementing and monitoring them, evaluating effectiveness and adapting to changes. The work also draws attention to the importance of adaptability and flexibility in planning so that the university remains relevant and ready for changes in the environment.

Keywords: strategic planning, analyzing the internal and external environment, social approaches, sustainability, monitoring and evaluation, adaptation, SWOT analysis.

Oliy ta'lim muassasi faoliyatini strategik rejalashtirishning asosiy yondashuvlari

Uktamov S.A.¹, Talipova G.D.²

¹Toshkent davlat transport universiteti, Toshkent, O'zbekiston

²Toshkent temir yo'l texnikumi, Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya Ushbu maqola Toshkent davlat transport universitetini strategik rejalashtirishning asosiy yondashuvlariga bag'ishlangan. Maqolada strategik rejalashtirishning asosiy elementlari, jumladan, universitetning missiyasi va qarashlarini belgilash, ichki va tashqi muhitni tahlil qilish, aniq maqsadlarni belgilash, strategiyalar va harakatlar rejalari ishlab chiqish, ularni amalga oshirish va monitoring qilish, samaradorlikni baholash va o'zgarishlarga moslashish ko'rib chiqiladi. Ish shuningdek, universitet dolzarb va atrof-muhitdagi o'zgarishlarga tayyor bo'lib qolishi uchun rejalashtirishda moslashuvchanlik va moslashuvchanlikning muhimligiga e'tibor qaratadi.

Keywords: strategik rejalashtirish, ichki va tashqi muhitni, ijtimoiy yondashuvlarni, barqarorlikni tahlil qilish, monitoring va baholash, moslashtirish, tahlil qilish.

1. Kirish

“Strategik rejalashtirish” atamasi oliy ta'lim muassasini, jumladan universitet faoliyatini uzoq muddatli rejalashtirishni anglatadi. Boshqacha qilib aytganda, universitetni rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishni majmuaviy ko'rinishidir. Chunki, universitet faoliyatini strategik rejalashtirish tizimli jarayon bo'lib, u ma'lum bir manfaatlarini, mavjud resurslarni hisobga olishni, maqsad va vazifalarni hamda ularga muvofiq dasturlarni shakllantirishni o'z ichiga oladi. Universitet faoliyati o'ziga xosligidan kelib chiqqan holda, strategik reja boshqaruv hujjati bo'lib hisoblanishi va quyidagi xususiyatlarni o'z ichiga olishi zarur [1-7].

1) universitetning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish maqsadlari (muhim bo'lgan eng ustuvor yo'nalishlarni aniqlash);

2) ko'zlangan maqsadlarga erishish yo'llari;

3) potensial imkoniyatlar;

4) mavjud resurslardan oqilona foydalanish usullari.

Oliy ta'lim muassasini faoliyatini strategik rejalashtirish bo'yicha turlicha qarashlar mavjud. Chunki, ta'lim muassasini strategik rejalashtirish dinamik jarayon bo'lib, rejalashtirish jarayonida kelajakdagi yutuqlarga katta e'tibor qaratish va tahlil qilishni talab qiladi. Shu bilan birga, ta'lim muassasini strategik rejasini ishlab chiqishda “iste'molchi” tushunchasining o'ta noaniqligi mavjud. Iste'molchi sifatida talabalar, ish beruvchilar, davlatni kiritish mumkin. Bu iste'molchilarning manfaatlari biznesdan farqli o'laroq, nafaqat turlicha, balki bir-biriga zid bo'lishi ham mumkin.

2. Metodologiya

Oliy ta'lim muassasi faoliyatini strategik rejalashtirishning asosiy yondashuvlari sifatida Toshkent davlat transport universiteti misolida ko'rib

^a <https://orcid.org/0009-0006-0298-9475>

^b <https://orcid.org/0009-0001-1567-1822>



chiqamiza. Toshkent davlat transport universiteti faoliyatini strategik rejalashtirish quyidagi asosiy bosqichlardan tashkil topishi zarur [4]:

3. Universitetning joriy holat tahlili bosqichi.

Ushbu bosqichda universitet oldida tugan mumoamlardan kelib chiqib, bir qator ko'rsatkichlarni tahlilini amalga oshirish zarur:

- talabalarni o'zlashtirish darajasi;
- talabalarni universitet faoliyatidan qoniqish darajasi;
- professor-o'qituvchilarni ilmiy-tadqiqot ishlari ko'rsatkichlari;
- moliyaviy ko'rsatkichlari;
- universitet tashkil tuzilmasi va ularning funksional majburiyatlari, o'zaro aloqalarini baholashi;
- universitetning jahon va milliy reytinglardagi o'rni va ning jozibadorligi;
- hamkorlik aloqalarining mavjudligi;
- o'quv va ilmiy-tadqiqot bazalari, kutubxona va axborot resurslari, texnik bazaning mavjudligi va holatini;
- professor-o'qituvchilarning malakasi va malaka oshirish dasturlari mavjudligi;
- Talabalarni qo'llab-quvvatlash dasturlarining mavjudligi va samaradorligi;
- turli xil tadbirlar va klublarni mavjudligi. Yuqorida sanab o'tilgan ko'rsatkichlar tahlili, universitetni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish uchun muhim yo'nalishlarni ochib beriga xizmat qiladi. Jumaldan, tahlil natijalari asosida universitet faoliyatini qaysi joyida muammolarni borligini ko'rsatish bilan birga, faoliyatni takomillashtirish uchun zaruriy dasturlar ishlab chiqishga imkon yaratadi.

4. Universitetning missiya va maqsadlarni aniqlash bosqichi.

Ikkinchi bosqichda universitet missiyasini belgilab olish zarur. Chunki, universitetning missiyasi uning asosiy maqsadi bo'lib, universitetning qadriyatlarini belgilaydi hamda ta'lim muassasasining faoliyati shu missiyaga soslanadi[3].

Universitetning maqsadlari esa o'z missiyasining bir qismi sifatida erishmoqchi bo'lgan aniq natijalardir.

Universitet missiyasi va maqsadlarni belgilashda quyidagi talablarga amal qilishi lozim:

- Universitetning missiyasi va maqsadlari barcha manfaatdor tomonlar, jumladan, talabalar, professor-o'qituvchilar, ma'muriya, umuman jamoatchilikka tushunarli bo'ladigan tarzda bayon etilishi kerak.
- Missiya va maqsadlar universitet xodimlari va talabalarini ilhomlantirishi, ularni yuqori natijalarga erishishga intilishga undashi kerak.
- Universitetning qadriyatlarini va uning ta'lim, tadqiqot va jamiyatga xizmat ko'rsatishda mukammallikka sodiqligini aks ettirishi kerak[4].
- Maqsadlar aniq va o'lchanadigan bo'lishi kerak.
- Universitetning maqsadlari mavjud resurslar va imkoniyatlar doirasida real va erishish mumkin bo'lishi kerak.
- Universitetning missiyasi va maqsadlari o'zgaruvchan sharoitlari va ehtiyojlariga moslashuvchan bo'lishi kerak.
- Universitetning missiyasi va maqsadlari universitetning uzoq muddatli rivojlanishiga, kelajakda uning barqarorligi va muvaffaqiyatiga hissa qo'shishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Yuqorida keltirilgan talablar asosida ishlab chiqilgan missiya va maqsadlar universitetga o'z faoliyatini tashkil etish va rivojlantirish uchun samarali vosita sifatida foydalanish ikonini beradi [5].

5. Universitetning SWOT tahlili o'tkazish bosqichi.

Bu bosqichda universitetning kuchli va zaif tomonlarini, shuningdek, u duch keladigan imkoniyatlar va tahdidlarni aniqlash lozim. Bu strategik ustuvorliklar va takomillashtirish choralarini aniqlash imkonini beradi.

Universitetning kuchli va zaif tomonlarini, imkoniyatlar va tahdidlarni tahlil qilishda quyidagi savollarga jaob topish talab etiladi:

Kuchli tomonlarni aniqlash bo'yicha:

Akademik reputatsiya va ta'lim sifati.

Pedagogik kadrlar va ilmiy xodimlarning malakasi.

Keng qamrovli akademik dasturlar va tadqiqot imkoniyatlari.

Infratuzilmaning sifati (kutubxonar, laboratoriyalar, sport inshootlari).

Muvaffaqiyatli talabalar loyihalari va darsdan tashqari tadbirlar.

Kamchiliklarni aniqlash bo'yicha:

Moliyalashning etarli emasligi va cheklangan resurslar.

O'quv dasturlari va o'qitish texnologiyalarini yangilash darajasi past.

Talabalarining kasbiy tayyorgarligi va amaliyotiga yetarlicha e'tibor berilmamligi.

Talabalar va o'qituvchilarning xalqaro integratsiya va harakatchanligining past darajasi.

Ilmiy faoliyat va tadqiqotlar uchun cheklangan imkoniyatlar.

Imkoniyatlarni aniqlash bo'yicha:

Universitetga bo'lgan qiziqish ortishi orqali talabalar sonining ko'payishi.

Boshqa universitetlar va ilmiy tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatish imkoniyati kengligi.

Ta'lim va ilmiy tadqiqotni yaxshilash uchun yangi texnologiyalar va ta'lim yondashuvlarini joriy etish.

Xalqaro almashinuv va hamkorlik dasturlarini kengaytirish.

Universitetni rivojlantirish uchun moliyaviy va boshqa resurslar oshirish.

Tahdidni aniqlash bo'yicha:

Boshqa ta'lim muassasalarini mavjudligi va ularni raqobatbardoshligi.

Universitetni moliyalashtirish va akkreditatsiya qilishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan qonunchilik va ta'lim siyosatidagi o'zgarishlar.

Malakali kadrlar va o'qituvchilarning etishmasligi.

Talabalarining ijtimoiy imtiyozlari va ehtiyojlarining o'zgarishi.

Global inqirozlar yoki favqulodda vaziyatlar, masalan, pandemiya yoki iqtisodiy inqiroz.

Ushbu savollar asosida maga oshirilgan SWOT tahlil universitetga ta'lim bozoridagi o'z mavqeini yaxshiroq tushunishga va raqobatbardoshligini yaxshilashga yordam beradi[6].

6. Universitetning uzoq muddatga mo'ljallagan strategiyani ishlab chiqish bosqichi.

Ushbu bosqichda strategiyani asosiy yo'nalishlarini tanlanishi lozim. Jumladan, o'quv dasturlari, ilmiy tadqiqot hamda talabalar hayoti, innovatsiyalar va texnologiyalar yo'nalishi bo'yicha dasturlar ishlab chiqilish lozim. Har bir yo'nalish bo'yicha aniq strategik tashabbuslarni belgilash, ya'ni yangi ta'lim texnologiyalarini joriy etish, xalqaro



almashinuvni rivojlantirish, innovatsion markazlarni yaratish va boshqalar.

Shu bilan birga, belgilangan maqsadlarga erishishni aks ettiruvchi ko'rsatkichlarni tanlash hamda har bir ko'rsatkich uchun maqsadlar va vaqt chegaralarni belgilash kerak. Shuningdek, strategiyani amalga oshirish uchun byudjetni rejalashtirish va resurslarni taqsimlash zarur.

Loyihalarni ishlab chiqishda talabalar, professor-o'qituvchilar, ma'muriyat a'zolari bilan munozaralar o'tkazish orqali ularni fikr va takliflarini hisobga olish maqsadga muvofiqdir [10,11].

Bu jarayon universitetga o'z maqsadlariga erishishga qaratilgan va uning missiyasi va qadriyatlariga mos keladigan samarali va moslashuvchan strategiyani ishlab chiqishga yordam beradi.

5.Maqsadlarga erishish uchun zarur harakatlar va tadbirlarni ishlab chiqish bosqichi.

Universitet strategiyasini aniqlagandan so'ng uni amalga oshirish bo'yicha aniq harakatlar va tadbirlarni ishlab chiqish kerak. Universitet rivojlaniriga qaratilgan strategiya o'z ichiga quyidagi tadbirlarni qamrab olishi kerak:

Xalqaro almashinuv va dasturlarini ishlab chiqish:

1. Yangi xalqaro ta'lim dasturlari va ingliz tili kurslarini yaratish.

2. Chet ellik talabalar uchun almashinuv dasturlari bo'yicha o'rinlar sonini ko'paytirish.

3. Xalqaro ta'lim tadbirlari va turli mamlakatlarning ta'lim mutaxassislari bilan uchrashuvlar o'tkazish.

Texnik infratuzilmani modernizatsiya qilish va ta'lim muhitini yaxshilash:

1. Zamonaviy o'qitish texnologiyalaridan foydalangan holda o'quv xonalari va laboratoriyalarni yangilash.

2. O'qituvchilar va talabalar o'rtasida masofaviy ta'lim va materiallar almashinuv uchun onlayn platformalarni joriy etish.

3. O'qituvchilar uchun yangi ta'lim texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha treninglar va seminarlar o'tkazish.

Iqtidorli yosh tadqiqotchilarni jalb qilish va qo'llab-quvvatlash:

1. Yosh olimlar va tadqiqotchilar uchun tanlovlar va stipendiya dasturlarini o'tkazish.

2. Talabalar ilmiy to'garaklari va loyihalarini tashkil etish va qo'llab-quvvatlash.

3. Talabalar va yosh tadqiqotchilar uchun ilmiy grantlar va stipendiyalarni moliyalashtirishni oshirish.

Marketingni yaxshilash va talabalarni jalb qilish:

1. Xorijiy talabalarni jalb qilish uchun yangi marketing materiallari va o'qituvchilarni ishlab chiqish.

2. Xalqaro ta'lim ko'rgazmalari va yarmarkalarida ishtirok etish.

3. Xorijiy talabalar uchun kampus va ta'lim dasturlari bo'yab virtual sayohatlar yaratish.

Talabalarni qo'llab-quvvatlash tizimini ishlab chiqish:

1. Talabalar, ayniqsa xalqaro talabalar uchun akademik yordam va repetitorlik dasturlarini kengaytirish.

2. Karyera rivojlantirish va talabalarni amaliyot va ish topishda qo'llab-quvvatlash markazini yaratish.

3. Xorijiy talabalarning yashash sharoitlari va moslashuvini yaxshilash, shu jumladan vizalar va uy-joy olishda yordam berish.

Ushbu tashabbuslarning har birida ularni amalga oshirish uchun bajarilishi kerak bo'lgan aniq harakatlar mavjud. Ular universitetning turli bo'limlari va guruhlari o'rtasida taqsimlanishi mumkin va har bir faoliyat

muvofiqlashtirish va monitoring qilish uchun mas'ul shaxs yoki guruhga topshirilishi kerak [4, 9].

7. Natijalar

Strategiyaning amalga oshirilishini monitoring qilish va baholash.

So'ngi bosqich universitetning to'g'ri yo'nalishda harakatlanishini ta'minlash uchun strategiyani amalga oshirilishini monitoring qilish va baholash tizimini yaratish va zarurat tug'ilganda strategiyaga tuzatishlar kiritish imkoniyatini yaratadi. Ushbu imkoniyatdan to'g'ri foydalanish uchun quyidagi jarayonlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

Asosiy samaradorlik ko'rsatkichlarini (KPI) belgilash: strategik maqsadlar erishish uchun aniq ko'rsatkichlarni belgilash. Ushbu ko'rsatkichlar maqsad va loyihalarga mos kelishi kerak.

Ma'lumotlar yig'ish tizimini ishlab chiqish: KPIlarni baholash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni to'plash mexanizmlarini yaratish. Bu sifat va miqdoriy ma'lumotlarni to'plash uchun anketalar, so'rovlar, o'zgarishlar hisobotlar va boshqa vositalardan foydalanishni o'z ichiga olishi mumkin [9].

Muntazam monitoring: strategik maqsadlarga erishilayotganligini aniqlash uchun ma'lum bir davr oralig'ini monitoring olib o'rish. Maqsadlarning xususiyatiga qarab, bu choraklik, yarim yillik yoki yillik monitoring bo'lishi mumkin.

Natijalarni tahlil qilish: tendentsiyalarni aniqlash uchun ma'lumotlarini tahlil qilish. Belgilangan ko'rsatkichlar bo'yicha erishilgan natijalarni baholash, shuningdek, oldingi davrlar bilan qiyosiy tahlil qilish.

Muammolarni aniqlash: strategiyani amalga oshirishda belgilangan ko'rsatkichlardan og'ishlar yuzaga kelganda rejalarni tuzatish, resurslarni qayta taqsimlash yoki vazifalarni bajarishga yondashuvlarni o'zgartirish [11,12].

Strategiyani yangilab turish: universitet strategiyasini vaqti-vaqti bilan qayta ko'rib chiqi va zarur hollarda yangilash. Bu strategiyani o'zgaruvchan sharoit va ehtiyojlarga moslashishga, shuningdek, uning dolzarbligi va samaradorligini saqlab qolishga imkon beradi.

8. Xulosa

Toshkent Davlat Transport universiteti faoliyatini strategik rejalashtirishning asosiy yondashuvlari har tomonlama va istiqbolli hisoblanadi. Ular universitet faoliyatining turli jihatlarini, shu jumladan akademik, tadqiqot, moliyaviy va infratuzilmani rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Universitetning hozirgi holatini tahlil qilish, aniq vazifalar va maqsadlarni belgilash, SVOT tahlillarini o'tkazish, uzoq muddatli strategiyalarni ishlab chiqish va aniq harakatlarni amalga oshirish orqali universitet o'zining raqobatbardosh mavqegini oshirish, ta'lim va tadqiqot sifatini oshirish va samarali foydalanishni maqsad qilgan.uning resurslari. Ushbu yondashuvlar universitetning doimiy takomillashtirish va uzoq muddatli barqaror rivojlanishga sodiqligini ta'kidlaydi.



Adabiyotlar / References

[1] Aaker D. "Strategik bozorni boshqarish" M.: Piter, 2002. 542 b.

[2] J. M. Bryson. (2018). Strategic Planning for Public and Nonprofit Organizations: A Guide to Strengthening and Sustaining Organizational Achievement. John Wiley & Sons.

[3] Agabegyan A.G. "Sotsialistik korxonalarini boshqarish: nazariya va amaliyot masalalari". M.: Iqtisodiyot, 1979. 447b.

[4] Aleshin A.B. "Innovatsion jarayonni takomillashtirish bo'yicha xalqaro tajriba va iqtisodiyotning innovatsion samaradorligini oshirish mexanizmlarini tahlil qilish" // Innovatsiyalar. 2004 yil. 61-69-betlar.

[5] J. M. Bryson. (2018). Strategic Planning for Public and Nonprofit Organizations: A Guide to Strengthening and Sustaining Organizational Achievement. John Wiley & Sons.

[6] Antonenko I.V. Mintaqaviy innovatsion tizimning funktsional makrotuzilmasini shakllantirish // Mintaqaviy iqtisodiyot: nazariya va amaliyot. 2010 yil. 23-son. 20- 28-betlar.

[7] Arkhipov V. Kompaniyalarni strategik rejalashtirish texnologiyasini ishlab chiqishdagi asosiy yutuqlar // Menejment nazariyasi va amaliyoti muammolari. 2004 yil. № 5. 113-118-betlar.

[8] Afonin, I.V. Innovatsiyalarni boshqarish. M.: Gardariki, 2005 yil.

[9] Borur Likar Peter Fatur, Urshka Mrgole: translation Arslingue TEFL.,TBELjubljana INNOVATION management (Elektronski vir) 2014.

[10] www.ifmr.uz

[11] www.ziyonet.uz

[12] <http://www.review.uz>

[13] www.managment.ru

[14] www.innovations-bmti.uz

**Mualliflar haqida ma'lumot /
Information about the author**

Sarvar Uktamov Toshkent davlat transport
/Uktamov Sarvar universiteti magstranti.
Atxam o'g'li e-mail: uktamovsa@gmail.com
<tel:+998998746575>
ORCID: <https://orcid.org/0009-0006-0298-9475>

Gulnoza Talipova/ Toshkent temir yo'l texnikumi e-
Talipova Gulnoza mail: guli_bokhodirova@mail.ru
Davron qizi tel.: +998977089944
ORCID: <https://orcid.org/0009-0001-1567-1822>



The role of strategic planning in the strategic management of higher educational institution

M.I. Akbarov¹^a, S.A. Uktamov¹^b

¹Tashkent state transport university, Tashkent, Uzbekistan

Abstract: This article is devoted to the study of the issue of strategic planning. Using the example of the Tashkent State University of Transport, the stages of planning implementation and the main requirements for it are shown.

Keywords: plan, strategic planning, consistency, short-term planning.

Oliy ta'lim muassasalari strategik boshqaruvida strategik rejalashtirishning o'rni

Akbarov M.I.¹^a, Uktamov S.A.¹^b

¹Toshkent davlat transport universiteti, Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya Ushbu maqola strategik rejalashtirish masalasini o'rganishga bag'ishlangan. Toshkent davlat transport universiteti misolida rejalashtirishni amalga oshirish bosqichlari va unga qo'yiladigan asosiy talablar ko'rsatilgan.

Keywords: reja, strategik rejalashtirish, izchillik, qisqa muddatli rejalashtirish

1. Kirish

Ta'lim muassasasini boshqarishda belgilangan ishlarni to'g'ri rejalashtirish ta'limning sifat samaradorligini oshirishning birinchi omilidir. Shuningdek, tashkillashtirish, nazorat qilish, bajarilgan ishlarni xolis baholash, galdagi vazifalarni aniq belgilash rahbarning asosiy vazifasidir.

Reja qat'iy ketma-ketlik asosida bajariladigan ishlar ko'lamini vaqtga bog'lab chiqishdir. Rejani tuzishda resurslar va maqsadlar inobatga olinadi. Rejalashtirish o'ta murakkab jarayon hisoblanib, boshqaruvchidan katta tajriba, malakani talab etadi. Rejaning tuzilishiga qarab, boshqaruvning realligi haqida fikr yuritish mumkin[1-5].

Rahbar rejani tuzishda barcha ishlarni detallashtirilgan holda, qat'iy ketma-ketlikda, eng asosiy, har bir bajariladigan ish uchun aniq muddat belgilangan holda beradi. Rejada muddatlar mujmal, noaniq bo'lmasligi kerak. Ko'p holatlarda rejada belgilangan ishlar uchun muddat "Yil davomida" yoki "muntazam", "oy davomida" singari so'zlar orqali belgilanganini kuzatamiz. Bu esa belgilangan ishning hech qachon amalga oshmasligiga zamin yaratadi. Chunki yil davomida bajarilishi belgilangan ish bajaruvchida javobgarlik hissini sezmaslikni keltirib chiqaradi. Muddatning belgilanishidan maqsad – belgilangan kuni ayni shu tadbir yakunlanib, ko'zlangan natijaga erishilganligi e'lon qilinishi kerak.

2. Metodologiya

Xodimlar rejada belgilangan ishlarni to'liq, sifatli va samarali usullar bilan bajarishlari uchun sinalgan yo'l sifatida quyidagi amallar bajarilishi maqsadga muvofiq bo'ladi:

- rejani tuzishda barcha ijrochi, bajaruvchi xodimlar faol ishtirok etishi kerak;

- rejaning barcha bandlari ijrochi, bajaruvchi xodimlar uchun tushunarli bo'lishi zarur;

- rejada belgilangan muddatlar aniq ifoda etilib, barcha ijrochi xodimlar aynan shu muddat yakunida yoki undan oldin belgilangan natijaga erishishlari va o'rnatilgan tartibda uni e'lon qilishlari zarur;

- belgilangan muddatda erishilmagan natija uchun jazoning turi oldindan aniqlangan va u ijrochilar tomonidan idrok etilib, tan olingan bo'lishi zarur;

- bajarilgan ish va erishilgan natijaga e'tibor berilishi, buning biror usulda qayd etilishi, bunday ma'lumotlar to'planib borayotganligi ijrochilarga etkazilishi zarur (oldindan belgilangan natija uchun taqdirlanmasligini har bir ijrochi bilishi kerak);

- erishilgan yutuq uchun, ya'ni oldindan belgilanmagan, e'tirofga molik (katta moliyaviy, ijtimoiy va siyosiy) natija uchun taqdirlanish imkoniyati mavjudligi to'g'risida har bir ijrochi xabardor bo'lishi lozim;

^a <https://orcid.org/0009-0002-0838-2691>

^b <https://orcid.org/0009-0006-0298-9475>



- reja nafaqat yuqori tashkilotlarning topshiriqlari, balki mavjud resurslardan samarali foydalanish imkoniyatini ham ochib berishi kerak;

- reja tuzishga barcha xodimlar ishtirokidagi jiddiy ilmiy tadbir sifatida qaralishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Reja boshqaruvni ma'lum muddatlarda erishilayotgan kichik-kichik natijalar ortidan yakuniy natija – maqsadga tomon harakatlanib borayotganlikning nazoratini olib borish uchun zarur bo'lgan hujjatdir[4].

Reja bu – bajariladigan ishlarning ro'yxati ko'rinishidagi hujjatdir. Ushbu hujjatning yaratilishi va unga o'zgartirishlar kiritib borish jarayoni rejalashtirish deb ataladi. Rejalashtirish jarayoni biror bir mas'ul shaxs tomonidan olib boriladi. Oliy ta'lim muassasalarida bunday jarayonlar bilan shug'ullanadigan shtat mavjud emas. Vaholanki, reja va rejalashtirish ta'lim muassasasi (uning rahbari va xodimlari)ning taqdiriga bevosita daxldor, uning faoliyatini oldindan belgilangan maqsad uchun doim harakatlantirib turadigan yagona hujjat, kuch hisoblanadi. Shu munosabat bilan rejalashtirish jarayoniga qanday yondashuvlar mavjudligi haqida to'xtalamiz[5].

Rejalashtirishga uch xil yondashuv mavjud: strategik, o'рта va qisqa muddatli rejalashtirish. Ta'lim muassasalaridagi ishlarni strategik rejalashtirish. Ta'lim muassasalarida uzoq muddatli rejalashtirish kamida 5 yil yoki 7 yillik ishlarni qamrab oladi. Bunday rejalashtirishning eng asosiy maqsadi va vazifasiga O'zbekiston Respublikasi "ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturidagi tamoyillar, vazifalar va tuzilmalar kiradi. Ushbu rejalashtirish davlatning ta'lim sohasidagi siyosatini ro'yobga chiqarishda anglashilmovchiliklarga yo'l qo'ymaydi.

Ta'lim muassasasining obro'si bitiruvchilarining keyingi faoliyati, ularning hayotda o'z o'rnini topishi bilan bog'liqdir. O'quvchilarga berilgan ta'lim sifati, qo'llangan o'qitish texnologiyalari samarasini ko'rish, baholash uchun esa kamida 5 yoki undan ortiqroq muddat talab qilinadi.

Xalq xo'jaligidagi o'zgarishlar, albatta, kadrlar tayyorlash soni, darajasi va miqyosiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Bilamizki, xalq xo'jaligida rejalar kamida 3, 5 va 7 yillik davrni ko'zlagan holda tuziladi. Demak, strategik reja ham qariyb shuncha davrni o'z ichiga olishi kerak[4,6].

Bunday hujjatning ijrochisi ta'lim muassasasi rahbariyatidir. Strategik reja o'z-o'zidan konkret natija bermaydi, unda belgilangan tadbirlarni avval o'рта, keyinchalik qisqa muddatli rejalashtirish orqali yillik ish rejalariga kiritish ko'zda tutiladi. Strategik reja ta'lim muassasasining maqsadiga qarata olingan mo'ljalni doimo nazarda tutib turish uchun xizmat qiladi. Har yili tuziladigan yillik reja aynan strategik reja asosida ishlab chiqilishi zarur. Ba'zi hollarda strategik reja ham o'zgartirish kiritib borish lozim bo'ladi. Bunda ta'lim muassasasi rahbarining xalq xo'jaligidagi katta o'zgarishlar, yangi davlat dasturlarining qabul qilinishi, ilg'or pedagogik texnologiyalarning kirib kelishi kabilarni idrok eta bilish, rahbarlik hissi bilan sezishi talab etiladi. Strategik rejani ishlab chiqishda tegishli ijrochilarning qatnashishi, muddatlarning aniq bo'lishi, bajarilmagan tadbirlar uchun jazo, bajarilganlari uchun mukofot bo'lishi va boshqa tamoyillarga asoslaniladi. Strategik reja, asosan, rahbarning stolida, uning ko'z o'ngida bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Ta'lim muassasasini boshqa tashkilotlarga ibrat qilib ko'rsatishda aynan shu rejadan foydalaniladi. Unda asosiy yo'nalishlar: ta'limning mazmunini boyitish, ma'naviy, ijtimoiy rivojlanishdagi asosiy parametrlar, jihozlash va moddiy-texnik bazani

shakllantirish, pedagogik kadrlar bilan ishlash va boshqa asosiy bo'limlar ko'rsatilsa, maqsadga muvofiqdir. Har bir yo'nalish uchun 5-7 yilda erishiladigan yakuniy natijalar aniq ifodalani, unga etishishning bosqichlari belgilanadi. Qisqa muddatli rejalashtirish boshqa ta'lim muassasasining eng quyi darajasida ishlab chiqilib, operativ maqsadlar bajarilishining yo'llarini ko'rsatib beradi va taktik maqsadlar uchun sharoit yaratishda muhim o'rin tutadi. Mazkur rejalashtirish ta'lim muassasasining yalpi faoliyatini qamrab oladi: oddiy xodim, pedagog, rahbariyat ushbu rejalashtirishda qatnashadi va uning natijasida paydo bo'lgan hujjat jamoa uchun majburiy xarakterga ega bo'ladi. Yillik reja asosida har bir maqsadga erishish uchun jadvallar ishlab chiqiladi. Unda muddatlar aniq belgilanishi zarur. Muassasaning sharoiti va talablarini to'liq qondirish, samarali usullar bilan qo'yilgan maqsadlarga erishishni hisobga olgan holda ishlar taqsimlanadi, shunga ko'ra byudjet shakllantiriladi. Qisqa muddatli rejalashtirish strategik va taktik maqsadlarda qo'yilgan vazifalarning ob'ektiv holatda bajarilishini ta'minlaydi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, miyada pishib etilgan g'oyalarni jismga, voqea va hodisalarga aylantirib berapdi. Shund rejalashtirish faoliyatiga bo'lgan harakat yuzaga keladi: yillik rejada belgilangan har bir bandning bajarilishi operativ maqsadlarni ro'yobga chiqarsa, u o'z navbatida taktik maqsadlarni amalga oshirish uchun shart-sharoit yaratadi, taktik maqsadlarning yuzaga kelishi esa strategik maqsadlarning amalga oshirishini ta'minlaydi. Oliy ta'lim tizimi boshqaruvida boshqarish usullari muhim ahamiyat kasb etadi [2,7].

3. Natijalar

So'ngi bosqich universitetning to'g'ri yo'nalishda harakatlanishini ta'minlash uchun strategiyani amalga oshirilishini monitoring qilish va baholash tizimini yaratish va zarurat tug'ilganda strategiyaga tuzatishlar kiritish imkoniyatini yaratadi. Ushbu imkoniyatdan to'g'ri foydalanish uchun quyidagi jarayonlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:


Asosiy samaradorlik ko'rsatkichlarini (KPI) belgilash: strategik maqsadlar erishish uchun aniq ko'rsatkichlarni belgilash. Ushbu ko'rsatkichlar maqsad va loyihalarga mos kelishi kerak.

Ma'lumotlar yig'ish tizimini ishlab chiqish: KPIlarni baholash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni to'plash mexanizmlarini yaratish. Bu sifati va miqdoriy ma'lumotlarni to'plash uchun anketalar, so'rovlar, statistik hisobotlar va boshqa vositalardan foydalanishni o'z ichiga olishi mumkin.

Muntazam monitoring: strategik maqsadlarga erishilayotganligini aniqlash uchun ma'lum bir davr oralig'ini monitoring olib borish. Maqsadlarning xususiyatiga qarab, bu choraklik, yarim yillik yoki yillik monitoring bo'lishi mumkin[3,5].


Natijalarni tahlil qilish: tendensiyalarni aniqlash uchun ma'lumotlarini tahlil qilish. Belgilangan ko'rsatkichlar bo'yicha erishilgan natijalarni baholash, shuningdek, oldingi davrlar bilan qiyosiy tahlil qilish.

Muammolarni aniqlash: strategiyani amalga oshirishda belgilangan ko'rsatkichlardan og'ishlar yuzaga kelganda rejalarini tuzatish, resurslarni qayta taqsimlash yoki vazifalarni bajarishga yondashuvlarni o'zgartirish.



Strategiyani yangilab turish: universitet strategiyasini vaqti-vaqti bilan qayta ko'rib chiqish va zarur hollarda yangilash. Bu strategiyani o'zgaruvchan sharoit va ehtiyojlarga moslashishga, shuningdek, uning dolzarbligi va samaradorligini saqlab qolishga imkon beradi[4,8].

Har qanday oliy ta'lim muassasa oldida raqobatbardoshlikni ta'minlashi uchun zamonaviy talablarga javob beradigan ta'lim muhitini yaratish vazifasi turadi. Ushbu vazifani ta'lim sifatini ta'minlash bajarish mumkin. Ta'lim sifatiga esa universitetni tashkiliy tuzilmasi, ta'limni tashkil etish va uni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan me'yoriy-hujjatlar, resurslar, monitoring va baholash vositalarining yig'indisidan tashkil topadi.



1-rasm. Universitetni strategik rejalashtirish modeli

4. Xulosa

Toshkent davlat transport universiteti yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashni kafolatlaydigan sifat tizimiga o'tishni bosqichma-bosqich reja asosida amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Bizning fikrimizga ko'ra, universitetni ta'lim sifatini ta'minlashga qaratilgan strategik rejalashtirish modeli quyidagi ko'rishga ega bo'lishi zarur (1-rasm).

Taklif etilayotgan modelni o'ziga xos xususiyati ikkita nazorat halqasining mavjudligidir: funktsiya va vazifalarni boshqarish (sifat kafolati) va rivojlanishni boshqarish (sifatni yaxshilash). Birinchi quyi tizim ta'lim tizimining hozirgi holatini va unda sodir bo'layotgan jarayonlarni baholashni, ikkinchi quyi tizim uzoq muddatli rejalashtirish va faoliyatni takomillashtirish jarayonlarini o'z ichiga oladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ushbu model ta'lim sifatini ta'minlash orqali iste'molchilarni talabiga qaratilsa, rivojlanishni ta'minlash orqali iste'molchilarni ta'lim jarayonidan qoniqishini hosil qiladi[8].

Adabiyotlar / References

- [1] Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. –T.: TDPU, 2004
- [2] Dess, G. G., Lumpkin, G. T., Eisner, A. B., & McNamara, G. (2016). Strategic Management: Text and Cases. McGraw-Hill Education.
- [3] Hill, C. W. L., Jones, G. R., & Schilling, M. A. (2016). Strategic Management: Theory: An Integrated Approach. Cengage Learning.
- [4] Aleshin A.B. "Innovatsion jarayonni takomillashtirish bo'yicha xalqaro tajriba va iqtisodiyotning innovatsion samaradorligini oshirish mexanizmlarini tahlil qilish" // Innovatsiyalar. 2004 yil. 61-69-betlar.
- [5] J. M. Bryson. (2018). Strategic Planning for Public and Nonprofit Organizations: A Guide to Strengthening and Sustaining Organizational Achievement. John Wiley & Sons.
- [6] David, F. R. (2011). Strategic Management: Concepts and Cases. Pearson Education.
- [7] Arkhipov V. Kompaniyalarni strategik rejalashtirish texnologiyasini ishlab chiqishdagi asosiy yutuqlar // Menejment nazariyasi va amaliyoti muammolari. 2004 yil. № 5. 113-118-betlar.
- [8] Wheelen, T. L., Hunger, J. D., Hoffman, A. N., & Bamford, C. E. (2017). Strategic Management and Business Policy: Globalization, Innovation and Sustainability. Pearson.

Mualliflar haqida ma'lumot / Information about the authors

Akbarov Mashxur Toshkent davlat transport universiteti Korporativ boshqaruv kafedrasida professor v.b.
e-mail: mashhur7777@gmail.com
tel: +998900620783
ORCID: <https://orcid.org/0009-0002-0838-2691>

Uktamov Sarvar Toshkent davlat transport universiteti magistranti.
e-mail: uktamovsa@gmail.com
tel: +998998746575
ORCID: <https://orcid.org/0009-0006-0298-9475>

